22. Aholi bandligining mintaqaviy xususiyatlari va uning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.
23. Aholi bandligini ta'minlashda aholisi zich joylashgan xorijiy mamlakatlar tajribasi.
24. Mintaqada mehnat bozori.
25. Mehnat bozorini tartibga solishning hududiy asoslari, uni takomillashtirish yo'llari.
26. Mehnat resurslari balansi.
27. Mehnat resurslaridan samarali foydalanish yo'llari.
28. Ishsizlik, uni mintaqalardagi holati.
29. Ishsizlikni kamaytirish yo'llari.

30. O'zbekiston sanoatining tarmoqlararo-mintaqaviy tarkibi.
31. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida sanoat ishlab chiqarishning ixtisoslashuvi.
32. Sanoat ishlab chiqarishini rivojlantirishning shart-sharoitlari.
33. Sanoatning hozirgi tashkil etishning zamonaviy shakllari.
34. Hududlarda innovatsion siyosat va uni joriy qilish yo'llari.
35. Strategik ahamiyatga ega tarmoqlarining milliy iqtisodiyotdagi roli.
36. Metallurgiya majmuasi.
37. Kimyo va qurilish materiallari sanoati.
38. Yengil va oziq-ovqat sanoat rivoji.
39. Qishloq xo'jaligi tarmog'ining hududiy xususiyatlari va ixtisoslashuvi.
40. ASK tushunchasi, tarkibi va uni boshqarish.
41. ASK siyosatdagi ustivorliklar.
42. Respublika qishloq xo'jaligini isloh qilish jarayoni.
43. Qayta ishlash korxonalari joylashuvi va ixtisosligi.
44. Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish sharoitida qishloqdagi mulkdor va tadbirkorlarning ahamiyatini oshirish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlash.
45. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida kommunikatsiya majmuasining ahamiyati.
46. Transport tizimi - temir yo'l, avtomobil, havo, suv va quvur transporti.
47. O'zbekistonda transport tizimini isloh qilish muammolari va vazifalari.
48. Kommunikatsiya korxonalarini rivojlantirish istiqbollari.
49. Telekommunikatsiya xizmatlari sohasi.
50. Davlat hokimiyatining turli pog'onalari o'rtasidagi vakolatlarni taqsimlash vazifalari va tamoyillari.
51. Boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash zaruriyati, muammolari.
52. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasida vakolatlarni taqsimlash jarayonining hozirgi holati.
53. Respublika, mintaqaviy va mahalliy boshqaruv organlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlik va aloqalarning samaradorligini oshirish yo'llari.
54. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatining mohiyati, maqsadi va vazifalari.
55. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirish dastaklari.
56. Mintaqaviy iqtisodiy siyosat bo'yicha xorijiy tajribalar.
57. AQSH va Buyuk Britaniya tajribasi.
58. Yevropa hamjamiyati mamlakatlarning mintaqaviy siyosati.
59. O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiy siyosatni amalga oshirilishi.
60. Mintaqaviy iqtisodiy siyosatning asosiy yo'nalishlari.
61. Mintaqalarning moliyaviy mablag'lari va uning bozor iqtisodiyoti sharoitidagi ahamiyati.
62. Mintaqa moliyasi-hududiy hokimlik budjetlarining asosiy moliya manbai.
63. Hududiy moliyaning mohiyati va tarkibi.
64. Mahalliy budjet - mahalliy boshqaruv organlarining asosiy moliyaviy manbasi.

65. Mahalliy budjet, uning tushumlari va xarajatlari.
66. Mahalliy soliqlar va ularning yo‘nalishlari.
67. Mol-mulk solig‘i. Mol - mulk solig‘ining mahalliy budjetdagi roli.
68. Budjet jarayoni. Budjetlararo munosabatlar.
69. Mahalliy budjetning respublika budjetidagi ulushi.
70. Mintaqalarga ajratiladigan subvensiyalar. Budjet ta‘minoti.
71. Hududiy budjetdan tashqari fondlar, hududiy o‘z-o‘zini moliya bilan ta‘minlash, hududlarning moliyaviy resurslari.
72. Hududiy moliyalashtirish bo‘yicha Yaponiya tajribasi.
73. Tashqi iqtisodiy aloqalarning mohiyati va tasnifi.
74. Mintaqalarning eksport salohiyati.
75. Mintaqalarda qo‘shma korxonalar rivojlanishi.
76. Tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish yo‘llari.
77. Mintaqaning eksport-import balansini tahlili va takomillashtirish yo‘llari.
78. Jahon hamjamiyati bilan hamkorlik.
79. Paxta kompleksining eksport salohiyatini rivojlantirish.
80. Mintaqalarda tayyor mahsulot eksportini ko‘paytirish yo‘llari.
81. Hamkorlikka asoslangan siyosat.
82. Xitoy – strategik sherik va yirik hamkor.
83. Shanxay hamkorlik tashkiloti – xavfsizlik va hamkorlik garovi.
84. O‘zbekiston-Malayziya hamkorligi.
85. Mintaqalarni tartibga solishning maqsadi va vositalari.
86. Mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning nazariy va uslubiy asoslari.
87. Hududiy o‘shish nazariyalari, uni tahlil etish masalalari.
88. Hududlar iqtisodiy rivojlanishini tartibga solishning maqsad va vositalari
89. Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining nazariy va uslubiy asoslari.
90. Hududiy o‘shish nazariyalarini tahlil etish masalalari.
91. Aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish yo‘llari.
92. O‘zbekiston mintaqalarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.
93. Mintaqalar iqtisodiyotiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari.
94. Mintaqalarda kichik tadbirkorlikni rivojlantirishni kengaytirish yo‘llari.
95. O‘zbekiston hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hududlarning iqtisodiyotiga investitsiyalarni jalb qilish xususiyatlari va imkoniyatlari.
96. Kichik tadbirkorlikni keng rivojlantirish yo‘llari.
97. Kichik biznesning mamlakat rivojlanishidagi ahamiyati.
98. Kichik korxonalar rivojlanishidagi xorijiy tajribalar.
99. Kichik korxonalar samaradorligi.
100. Kichik korxonalar chegaralarini aniqlash mezonlarini belgilash.
101. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi.
102. Mintaqalar iqtisodiy rivojlanishini omillari.
103. Ma‘muriy islohotlar o‘tkazish.
104. Mintaqalarga investitsiyalarni jalb qilishning asosiy tamoyillari va yo‘llari.
105. Mintaqalarni investitsion rivojlanish uslubi.

106. Mintaqalarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda innovatsion shart-sharoitlar.
107. Innovatsion rivojlanish asosida tadbirkorlik rivojlantirish yo‘llari.
108. Hududlarni innovatsion strategiyasini aniqlash uslubi.
109. Hududlar iqtisodiyotini rivojlantirishning innovatsion shart-sharoitlari.
110. Tadbirkorlikni rivojlantirish yo‘llari.
111. Atrof - muhitni muhofaza qilish. Atmosferani muhofaza qilish.
112. Yer va suv resurslaridan oqilona foydalanish.
113. O‘rmonlarni saqlash yo‘llari.
114. Cho‘l zonalarini o‘zlashtirish, qurg‘oqchilikka qarshi kurash.
115. O‘zbekiston va uning hududlarida biologik xilma-xillikni saqlab qolish yo‘llari.
116. Tog‘ hududlarini o‘zlashtirish va rivojlantirish yo‘llari.
117. Atmosfera havosining ifloslanishi.
118. Statsionar manbalardan chiqadigan chiqindilar.
119. Atmosfera havosining ifloslanishiga harakatlanuvchi manbalarning ta’siri.
120. Chegara bo‘yi hududlarida atmosfera havosining ifloslanishi.
121. Suv resurslarining holati va ulardan foydalanish.

08.00.15-Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kirish savollari

- 1.Kichik biznes va tadbirkorlik tushunchalari.
- 2.Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati.
- 3.Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslari.
- 4.Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari.
- 5.Kichik biznes va tadbirkorlikning O‘zbekiston iqtisodiyotida tutgan o‘rni.
- 6.O‘zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari.
7. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlanishi.
- 8.Tadbirkorlik turlari.
- 9.Tovar ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tadbirkorlik.
- 10.Tijorat tadbirkorligi.
- 11.Maslahat tadbirkorligi. Maslahat xizmatlari.
- 12.Tadbirkorlik shakllari.
- 13.Yakka tartibdagi tadbirkorlik.
14. Firmalar
15. Korporatsiya.
- 16.Davlat korxonalarini.
- 17.Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalarini tashkil etish va davlat ro‘yxatidan o‘tkazish tartibi.
- 18.Kichik biznes subyektlarining bankrotligi.
- 19.Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qayta tashkil etish va yopish tartibi.

20. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini boshqarishning maqsadi va vazifalari.
21. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari boshqaruvining tashkiliy tuzilmalari.
22. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini boshqarish usullari va qarorlar qabul qilish jarayoni
23. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketingning ahamiyati.
24. Marketing - biznes falsafasi.
25. Marketingning boshqaruv funksiyasi.
26. Tadbirkorlik faoliyatida bozor segmentatsiyasining ahamiyati.
27. Bozor segmentatsiyasining xususiyatlari.
28. Bozorni segmentlashni tashkil etish. Bozordagi maqsadli segmentni tanlash.
29. Tovarining hayotiylik davri.
30. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida reklama faoliyatini tashkil etish.
31. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanish.
32. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun marketing dasturini ishlab chiqish
33. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishning maqsadi va vazifalari.
34. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda biznes rejaning ahamiyati.
35. Biznes rejaning mohiyati, mazmuni va tuzish zaruriyati.
36. Biznes rejaning asosiy bo'limlari. Biznes rejani bajarilishini nazorat qilish.
37. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rejalashtirishni takomillashtirish.
38. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini iqtisodiy tahlil qilishning maqsadi va vazifalari.
39. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyatini operativ va strategik tahlil qilish.
40. Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari faoliyati samaradorligi tahlili
41. Infratuzilmaning mohiyati.
42. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmasi turlari.
43. Brokerlik idoralari, ulgurji va chakana savdo tuzilmalari, lizing, konsalting va sug'urta kompaniyalari, bojxona xizmati, axborot - maslahat markazlari, injineriing va auditorlik firmalari.
44. O'zbekistonning bank-moliya tizimi. Bank-moliya sohasidagi o'zgarishlar.
45. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda banklarning roli.
46. Banklardan kredit olish tartibi.
47. O'zbekiston Respublikasining soliq tizimi.
48. Soliq yukini kamaytirishga qaratilgan soliq siyosati.
49. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini soliqqa tortish xususiyatlari.
50. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlaridan olinadigan soliq turlari.
51. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlariga qo'llaniladigan soliq imtiyozlari
52. Ishlab chiqarish xarajatlarining mohiyati, tarkibi va elementlari.
53. Kichik biznes subyektlarining ishlab chiqarish, sotish va boshqa faoliyati natijasida yuzaga keladigan xarajatlarni turkumlash.

54. Ishlab chiqarish xarajatlari. Noishlab chiqarish xarajatlari. Ichki xarajatlar. Tashqi xarajatlar. Doimiy xarajatlar. O'zgaruvchan xarajatlar. Bevosita xarajatlar. Bilvosita xarajatlar.
55. Mahsulot tannarxiga kiritiladigan xarajatlar. Davr xarajatlari. Moliyaviy faoliyat bo'yicha xarajatlar.
56. Mahsulot tannarxi va uni hisoblash usullari.
57. Mahsulot tannarxini pasaytirish yo'llari
58. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy faoliyati ko'rsatkichlari.
59. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarining asosiy moliyaviy hujjatlari.
60. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari moliyaviy faoliyatini tahlil qilish.
61. Kichik biznes va tadbirkorlikda moliyaviy rejalashtirishning mohiyati, maqsadi va asosiy ko'rsatkichlari.
62. Kichik biznes va tadbirkorlikni moliyalashtirish manbalari.
63. Kichik biznes subyektlarini kredit bilan ta'minlash shakllari. Kredit turlari.
64. Kichik biznes va tadbirkorlik tizimida rentabellik darajasini hisoblash usullari
65. Makromuhit tuzilmasi.
66. Bozor yoki segmentda uzoq muddatli foyda olishdagi M.Porterning beshta raqobat kuchlari: raqobatchilar, tovar o'rnini bosuvchi mahsulotlar, yetkazib beruvchilar, sotuvchilar, bozorning salohiyatli ishtirokchilari.
67. Himoyalash strategiyasi. Strategiyani amalga oshirish uchun zaruriy bozor sharoitlari va xatarlari

09.00.03-Falafa tarixi ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish savollari

1. IX-XII asrlarda Markaziy Osiyoda ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va uning ilm-fan taraqqiyotiga ta'siri.
2. Muso al-Xorazmiyning ilmiy-falsafiy merosi.
3. Ahmad al-Farg'oniyning ilmiy-falsafiy merosi.
4. Abu Nasr Farobiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
5. Abu Rayhon Beruniyning ilmiy va falsafiy qarashlari.
6. Abu Ali Ibn Sinoning ilmiy va falsafiy qarashlari.
7. Ilk o'rta asrlarda Yevropada patristika va apologetika ta'limoti.
8. O'rta asrlar Yevropada sxolastika va uning yirik namoyondalari.
9. Yevropa Uyg'onish davri va uning falsafiy tafakkur taraqqiyotiga ta'siri.
10. Yevropa Uyg'onish davri guanizmi va uning yirik vakillari.
11. Uyg'onish davrida jamiyat haqidagi falsafiy fikrlarning rivojlanishi.
12. Alisher Navoiyning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.
14. Zaxiriddin Muhammad Boburning ijtimoiy-falsafiy va axloqiy qarashlari.
15. XVI – XVII asrlardagi ijtimoiy-siyosiy qarashlar.
16. XVIII asr ingliz falsafasida ijtimoiy-falsafiy qarashlar.
17. Frensis Bekon va Rene Dekartning falsafiy qarashlari.
18. Fransuz ma`rifatparvarlarining falsafiy qarashlari.
19. I.Kantning falsafiy merosi.
20. Fixte va Shellingning falsafiy qarashlari.

21. Gegelning falsafiy ta'limoti.
22. XVIII-XIX asrlarda Rossiyada ijtimoiy-falsafiy fikrlar rivojlanishining asosiy omillari.
23. Rus falsafasining asosiy yo`nalishlari
24. Boboraxim Mashrab va Bedilning ijtimoiy-falsafiy qarashlari.

25. Maxtumquli, Uvaysiy, Nodirabegim, Anbar otinlarning ijtimoiy-siyosiy qarashlari.
26. Abay, Gulxaniy, Ogahiyning ma'rifatparvarlik g'oyalari.
27. Jadidchilik harakati, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyati.
28. A.Shopengauer va S.Kerkegor falsafiy ta'limotlari.
29. Pozitivizm falsafasi va uning asosiy vakillari.
30. Pragmatizm falsafasi.
31. F.Nitsshe va Z.Freyd falsafasi.
32. Falsafa fanining tipologiyasi, rivojlanish bosqichlari, bo'limlari va sohalari.
33. Qadimgi Misr va Bobilda diniy-falsafiy fikrlar.
34. Qadimgi Hindistonda charvak va jaynizm falsafasi.
35. Buddha falsafasi.
36. Qadimgi Hindistonda nyaya, vaysheshika va sankhya falsafasi.
37. Qadimgi Hindistonda yoga, mimansa va vedanta falsafasi.
38. Daosizm falsafasi.
39. Konfutsiylik falsafasi.
40. Zardushtiylik dinining falsafiy ta'limoti.
41. Moniylik va mazdakiylikning falsafiy ta'limoti.
42. Milet va Ioniya maktablari naturfalsafasi.
43. Parmenid va eley maktabi falsafasi.
44. Demokrit va atomistik nazariya.
45. Geraklit va pifagorchilar falsafasi.
46. Sofistlar falsafasi.
47. Sokrat va Platonning falsafiy ta'limoti.
48. Aristotelning nazariy va amaliy falsafasi.
49. Ellinizm davri: stoiklar va epikurchilar falsafasi. Skeptika va eklektika.
50. Neoplatonizm falsafasi.
51. Islom dinining kalom falsafasi.
52. Kalom falsafasidagi asosiy yo`nalishlar va uning yirik vakillari.
53. Tasavvuf ta'limotining falsafasi.
54. Tasavvuf ta'limotining Markaziy Osiyodagi asosiy tariqatlari.
55. Falsafa tarixini o`rganish qanday maqsadni ko`zlaydi.
56. Falsafa tarixida «falsafaning asosiy masalasi»ga ta'rif berish qanday amalga oshirilgan.
57. Qadimgi Sharq va G'arb falsafasining umumiy tomonlari nimada.
58. Qadimgi Sharq va G'arb falsafasining farqli jihatlari nimada.
59. O`rta asr G'arbiy Yevropa falsafasining geotsentrik mohiyatini tushuntirib bering.
60. Ibn Arabiyning filosofemasi nimaga asoslanadi.

61. Bahouddin Naqshbandiyning asosiy g'oyasi nima va uning hozirgi kundagi ahamiyatini ko'rsating.
62. Abu Nasr Forobiy yaratgan bilish nazariyasining ahamiyati nimada.
63. Ibn Sinoning falsafiy qarashlarni o'ziga xos xususiyatlari.
64. Yangi va yeng yangi davr falsafasining o'ziga xos xususiyatlari nimada
65. F. Bekon va R. Dekart ijodini qiyoslang.
66. J. Lokk ta'limotining o'ziga xos tomonlarini tushuntiring.
67. Pozitivizm rivojlanishining asosiy bosqichlarini va ulardan har birining o'ziga xos xususiyatlarini ayting.
68. Postpozitivizmning o'ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat.
69. Falsafa tarixida borliq muammosi ga munosabatlar xilma-xilligini asoslang.
70. Falsafa tarixida substantsiya muammosiga kanday munosabat bildirilgan.
71. A. Yeynshteynning makon va vaqtga munosabati qanday.
72. Falsafa tarixida kategoriyalarga munosabatning xilma-xilligi. Antik davrda kategoriyalarning tasnifi.
73. Yangi davrda kategoriyalarga munosabat.
74. Kant, Gegel, Shelling ijodida kategoriyalarning tasnifi.
75. XX asrda kategoriyalarga munosabat.
76. I. Nyutonning klassik mexanikasi va atomizm g'oyasi.
78. Demokrit va I. Nyutonning substantsional va Aristotel-Leybnitsning relyatsion kontsepsiyasi.
79. I. Kantning kosmologik antinomiyalari va ularning hozirgi talqini.
80. Qadimgi falsafa harakat va sokinlik haqida. Geraklitning abadiy harakat va rivojlanish g'oyalari.

09.00.04 - Ijtimoiy Falsafa ixtisosligi bo'yicha tayanch doktoranturaga kirish savollari

1. Ijtimoiy falsafa va falsafa, ular o'rtasidagi umumiylik va o'ziga xoslik.
2. Ijtimoiy falsafaning bahs mavzusi, asosiy muammolari
3. Ijtimoiy falsafaning ijtimoiy gumanitar bilan munosabati.
4. Ijtimoiy falsafaning jamiyatdagi o'rni, asosiy funksiyalari.
5. Ijtimoiy falsafa fanining shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari.
6. Qadimgi Sharq mamlakatlarida shakllangan ilk ijtimoiy-falsafiy qarashlar. Xindiston. Xitoy. Markaziy Osiyo.
7. Markaziy Osiyo mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali Ibn Sinoning jamiyat va inson to'g'risidagi qarashlari.
8. Qadimgi Yunoniston olimlarining ijtimoiy-falsafiy qarashlari: Platon, Suqrot, Arastu. va VII- XVIII asrlar G'arbiy Yevropada shakllangan ma'rifatparvarlik g'oyalari. Tomas Gobbs, Sharl Lui Monteske, Jan Jak Russo.
9. Yangi davr G'arbiy Yevropa shakllangan ijtimoiy falsafiy qarashlar. Ma'rifatparvarlik g'oyalari. Tomas Gobbs. Sharl Lun Monteske. Jan Jak Russo
10. Ijtimoiy falsafaning fan sifatida shakllanishi. Gegel. K. Marks, o'gnost Kont. Gerbert Spenser. Emil Dyurkgeym.
11. XX asr: ijtimoiy falsafa taraqqiyot.

12. Jamiyat tushunchasi. Jamiyatning mohiyati o'ziga xos xususiyatlari.
13. Jamiyat to'g'risidagi falsafiy qarashlar. Markaziy Osiyo mutafakkirlari jamiyat to'g'risida.
14. Jamiyat hayoti va uning o'ziga hos jihatlari. Jamiyatdagi barqarorlik va beqarorlik, onglik va ongsizlik.
15. Jamiyat, ideal jamiyat, fuqarolik jamiyati.
16. Fuqarolik jamiyati haqidagi ijtimoiy falsafiy qarashlar.
17. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ideal jamiyat orzulari.
18. Fuqarolik jamiyatining o'ziga xos xususiyatlari. Fuqarolik jamiyati institutlari.
19. Kuchli davlatdan - Kuchli jamiyat sari" jamiyati va uning mamlakatimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishdagi o'rnini.
20. Jamiyat, inson, tabiat orasidagi uzviy aloqadorlik. Biosfera, noosfera. Akademik Vernadskiy ta'limoti.
21. Jamiyat hayoti va taraqqiyotining tabiiy omillari: Geografik muhit, aholi zichligi, ulaming jamiyatga ta'siri.
22. Geografik determinizm, maltuschilik va neomaltuschilik nazariyalari.
23. Geografik siyosat. Demografik siyosat. O'zbekistonning geografik siyosatining o'ziga hos tomonlari.
24. Demografiya. Demografik muammolar. Demografik siyosat. O'zbekistonning demografik siyosati.
25. Jamiyatning iqtisodiy hayoti. Moddiy ishlab chiqarish-jamiyat iqtisodiy hayotining asosi.
26. Texnika, texnologiya. Fan-texnika-ishlab chiqarish, ular orasidagi aloqadorlik.
27. Moddiy ishlab chiqarish. Ishlab chiqaruvchi kuchlar va ishlab chiqarish munosabatlari.
28. Mulk, uning tarixiy shakllari: jamoa mulki (ijtimoiy mulk) va hususiy mulk. O'zbekiston: ko'p ukladli iqtisodiyotni barpo etish vazifalari.
29. Mustaqil O'zbekiston: izchil iqtisodiy islohatlar va ularning xalq farovonligini oshirishdagi o'rnini.
30. Jamiyatning ijtimoiy hayoti tushunchasi. Ijtimoiy birliklar. Ijtimoiy
31. munosabatlar. Jamiyatning ijtimoiy tarkibi.
32. Jamiyatning etnik tarkibi. Urug'. Qabila. Elat. Millat.
33. Milliy va millatlararo munosabatlar. Milliy xamjihatlik va millatlararo hamkorlik - barqarorlik va taraqqiyot omili.
34. Jamiyatning sinfiy tarkibi. Sinflar, ijtimoiy tabaqalar, qatlamlar. Stratalar. O'rta mulkdorlar sinfi.
35. Jamiyatning demografik tarkibi. Ijtimoiy himoya siyosati va uning jamiyatimiz hayoti dagi o'rnini.
36. Jamiyatning siyosiy hayoti tushunchasi. Siyosat. Siyosiy tizim. Siyosiy ong. Siyosiy munosabatlar. Siyosiy muassasa va tashkilotlar.
37. Jamiyatning siyosiy tizimi. Davlat. Siyosiy partiyalar. Ijtimoiy harakatlar. Jamoat tashkilotlari.
38. Davlatning kelib chiqishi va mohiyati. Davlatning vazifalari. Davlatning shakl va ko'rinishlari.
39. Demokratik huquqiy davlat. O'zbekistonda barpo etilayotgan huquqiy

demokratik davlat.

40. Jamiyatning ma'naviy hayoti. Ma'naviy ehtiyoj. Ma'naviy faoliyat. Ma'naviy munosabat. Ma'naviy o'zlashtirish.
41. Ijtimoiy ong jamiyat ma'naviy hayotining asosi. Ijtimoiy ong strukturasi. Ijtimoiy ong shakllari.
42. Ma'naviyat va milliy o'zlikni anglash. Milliy g'oya-milliy o'zlikni anglash ifodasi. Milliy g'oyaning jamiyatdagi o'rni.
43. Fan - ijtimoiy ongning maxsus shakli sifatida. Fan inson ma'naviy faoliyatining o'ziga xos ko'rinishi. Fan - ijtimoiy institut sifatida.
44. Fan tarixi. Fanning shakllanishi va taraqqiyot bosqichlari. Klassik fan. Noklassik fan. Postnoklassik fan.
45. Fanlar klassifikatsiyasi. Tabiiy, ijtimoiy-gumanitar va texnik fanlar. Fundamental va amaliy fanlar.
46. Fan va jamiyat. O'zbekistonda fan taraqqiyoti istiqbollari.
47. Madaniyat. Madaniyat haqidagi qarashlar.
48. Moddiy va ma'naviy madaniyat.
49. Madaniyatning jamiyat hayotidagi o'rni, uning funktsiyalari.
50. Qadriyatshunoslik. Qadriyatlar, ularning asosiy turlari. Inson-eng oliy qadriyat.
51. Qadriyatlarning jamiyatdagi o'rni.
52. Ijtimoiy falsafada inson muammosi.
53. Ijtimoiy falsafiy qarashlarda inson muammosi. Hozirgi zamon falsafasi inson to'g'risida
54. Insonning mohiyati. Inson biososial mavjudot. Insondagi tabiiylik va ijtimoiylik.
55. Inson. Shaxs. Shaxs haqidagi qarashlar. Hozirgi zamon falsafasida Shaxs haqidagi g'oyalar.
56. Jamiyat va Shaxs, ularning o'zaro bir-biri bilan uzviy aloqadorligi. Jamiyatning Shaxsga va Shaxsning jamiyatga ta'siri.
57. Shaxs erkinligi va ma'suliyati.
58. Shaxsning tarixiy tiplari.
59. Mustaqil Shaxs tushunchasi. Erkin, mustaqil, barkamol Shaxsni tarbiyalash - mustaqillikni mustaxkamlash, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etishning muhim omili.
60. Ijtimoiy taraqqiyot. Progress regress. Ijtimoiy taraqqiyot tabiiy-tarixiy jarayon sifatida.
61. Ijtimoiy taraqqiyot haqidagi falsafiy konsepsiyalar.
62. Ijtimoiy taraqqiyotning shakl va ko'rinishlari. Tadrijiy, (evolyutsion) va inqilobiy taraqqiyot. Tadrijiy - (evolyutsion) taraqqiyot va uning o'ziga xos jihatlari.
63. O'zbekistonning o'z ijtimoiy taraqqiyot yo'li — «o'zbek modeli».
64. Jamiyatni insonparvarlashtirish-hozirgi zamon ijtimoiy taraqqiyotining asosiy yo'nalish sifatida.
65. Ijtimoiy taraqqiyotning subyektlari va harakatlantiruvchi kuchlari haqidagi falsafiy qarashlar
66. Manfaat. Ehtiyoj. Ijtimoiy ehtiyoj va manfaatlar, ulami qondirishga qaratilgan

- inson faoliyati — jamiyatini xarakterga keltiruvchi kuch
67. Ijtimoiy taraqqiyot subyektlari: tarixiy Shaxslar, xalq ommasi, millat. Sinf. Ularning tarixdagi oʻrni.
 68. Tarixda Shaxsning oʻrni. Buyuk zotlar, tarixiy Shaxslar
 69. Ijtimoiy taraqqiyotda inson omili
 70. «Sivilizatsiya» tushunchasining mazmun - mohiyati. Sivilizatsiya haqidagi ijtimoiy - falsafiy qarashlar
 71. Madaniyat va sivilizatsiya. Globallashuv jarayonlari va ularning sivilizatsiyaga taʼsiri
 72. Sivilizatsiyalar tasnifi. Sharq va Gʻarb sivilizatsiyasi
 73. Hozirgi zamon sivilizatsiyasi: yangicha yondashuvlar.
 74. Oʻzbekiston tashqi siyosatining asosiy tamoyillari
 75. Oʻzbekistonning jahon sivilizatsiyasiga integrallashuvi ikki yoqlama va koʻp yoqlama hamkorlik
 76. Jahonda tinchlikni saqlash, barqarorlikni mustahkamlashda Oʻzbekistonning tutgan oʻrni
 77. Bilish. ilmiy bilish. Ijtimoiy bilish. Ijtimoiy bilish haqidagi qarashlar
 78. Ijtimoiy bilish tarkibi. Ijtimoiy bilish darajalari. Empirik va nazariy bilish.
 79. Empirik bilish metodlari. Nazariy bilish metodlar.
 80. Ijtimoiy bilishning jamiyatdagi oʻmi va ahamiyati.

<p>10.00.01 – Oʻzbek tili ixtisosligi boʻyicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilar uchun sinov savollari Biletning 1-savoli uchun moʻljallangan: Hozirgi oʻzbek adabiy tili va Zamonaviy tilshunoslik muammolari fanlaridan savollar</p>
1.1. Oʻzbek tilining lingvokulturologik tadqiqi.
1.2. Oʻzbek tilining pragmalingvistik tadqiqi muammolari.
1.3. Oʻzbek tilining sotsiolingvistik tadqiqi muammolari.
1.4. Neyrolingvistika.
1.5. Oʻzbek tilining milliy korpusini yaratish.
1.6. Oʻzbek tilining lingvokognitiv oʻrganish.
1.7. Oʻzbek tilining psixolingvistik tadqiqi.
1.8. Gender tilshunoslik.
1.9. Oʻzbek tilining lingvopoetik tadqiqi muammolari.
1.10. Oʻzbek tilining lingvoekologik tadqiqi muammolari.
1.11. Oʻzbek tilining etnolingvistik tadqiqi muammolari.
1.12. Oʻzbek tilining onomastik tadqiqi muammolari.
1.13. Oʻzbek tilining dialektologik va areal tadqiqi muammolari.
1.14. Nutqiy akt.
1.15. Matnni kognitiv-semantik tadqiqi.
1.16. Ravishlarning maʼnaviy turlari va ularning soʻz yasash qoliplari. Adverbializatsiya.

1.17. Olmosh, uning mustaqil soʻzlar tizimida oʻziga xos ishoraviy oʻrni va vazifasi.
1.18. Sintaktik shakllarining tarkibi va ichki boʻlinishi.
1.19. Egalik va son kategoriyasining umumiy grammatik maʼnosi va uning nutqda voqelanishi.
1.20. Kelishik kategoriyasi paradigmasining umumiy grammatik maʼnosi, uning nutqda voqelanishi.
1.21. Feʼlning munosabat shakllari.
1.22. Oʻzbek tilida feʼl zamonlari. Oʻtgan, hozirgi, kelasi zamon shakllarining ichki paradigmasi va har bir shaklning umumiy grammatik maʼnosi, uning voqelanishi. Zamon shakllarida omonimiya va sinonimiya.
1.23. Yordamchi soʻzlar, ularning leksik va grammatik tizimlardagi oʻrni, affiksial morfemalarga munosabati.
1.24. Oʻzbek tilida koʻmakchi. Uning UGMsi.
1.25. Oʻzbek tilida bogʻlovchi va yuklama.
1.26. Oʻzbek tilida soʻz-gaplar. Soʻz-gaplarning maʼnoviy guruhleri. Bu guruhlar oʻrtasidagi oʻzaro munosabat. Soʻz-gaplar tasnifi.
1.27. Sintaksis va uning tadqiq manbai.
1.28. Soʻz maʼnosi taraqqiyoti.
1.29. Nominativ birliklar yasash. Soʻz birikmalari lisoniy sintaktik qolipi.
1.30. Kommunikativ birliklar yasash. Gapning lisoniy sintaktik qoliplari.
1.31. Sodda gap haqida maʼlumot. Murakkablashgan sodda gap.
1.32. Kesim – gap markazi va uning uyushtiruvchisi.
1.33. Ega, uning gap qurilishidagi oʻrni. Eganing ifodalanishi. Eganing mazmun-mohiyati.
1.34. Ikkinchi darajali boʻlaklar. Toʻldiruvchi, aniqlovchi va hol. Ularning gap qurilishida soʻz kengaytiruvchisi sifatidagi oʻrni.
1.35. Soʻzlarning shakl va maʼno munosabatiga koʻra turlari.
1.36. Gap boʻlaklari bilan aloqaga kirishmaydigan “boʻlaklar”.
1.37. Gapning uyushiq boʻlaklari.
1.38. Qoʻshma gaplarning ajratilish tamoyillari. Qoʻshma gaplarni bogʻlovchi vositalar.
1.39. Teng va tobe tarkibli qoʻshma gaplar.
1.40. Koʻchirma va oʻzlashtirma gap.

Biletning 2-savoli uchun moʻljallangan:

Tilshunoslik nazariyasi va Oʻzbek tili tarixi fanlaridan savollar

2.1. Tilimizga oid qonun va qarorlar. Tilimiz taraqqiyoti boʻyicha ilgari surilgan gʻoyalar, fikr va qarashlar.
2.2. Oʻzbek xalqi va uning tilining shakllanish tarixi.
2.3. Oʻzbek adabiy tilini davrlashtirish masalasi.
2.4. Oʻzbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi qonuni va uning tarixiy ahamiyati. Boshqa tillarga munosabat.
2.5. Oʻzbek adabiy tilning shakllanishida boshqa tillar ishtiroki.

2.6. O‘zbek adabiy tilining nomlanish tarixi. “Turk”, “sart”, “chig‘atoy”, “o‘zbek” atamalari haqida.
2.7. Eski turkiy adabiy til. “Devonu lug‘otit turk” asarining ahamiyati.
2.8. Eski o‘zbek adabiy tili. Uning shakllanishi va rivojlanish bosqichlari.
2.9. Ritorika va nutq madaniyati. Adabiyotning ona tilini rivojlantirishdagi ahamiyati.
2.10. Yangi davr o‘zbek adabiy tili. XX asr boshlarida adabiy til va mahalliy dialektlar, ularning o‘zaro munosabati. Alifbo va imlo sohasidagi o‘zgarishlar.
2.11. Til va jamiyat. Og‘zaki va yozma nutq. Adabiy til. Jamiyatning tilga va tilning jamiyatga ta’siri.
2.12. Geneologik tasnif. Agglyutinativ tillar. Flektiv tillar. Qardosh va qardosh bo‘lmagan tillar o‘rtasidagi munosabat.
2.13. O‘zbek xalqi tarixida foydalanilgan yozuvlar tasnifi.
2.14. Turkiy yozuvlar taraqqiyoti. Yozuvning paydo bo‘lishi. Piktografik, ideografik, bo‘g‘inli yozuvlar. Yozuvning jamiyat hayotidagi tutgan o‘rni. Turkiy xalqlarning yozuvlari.
2.15. O‘rxun-Enasoy yozuvi yodgorliklarning topilishi, o‘rganilishi.
2.16. Arab alifbosi va uning kelib chiqish tarixi. Arab alifbosida bitilgan turkiy yodgorliklar va ularning imlo xususiyatlari.
2.17. Lotin alifbosi va uning kelib chiqish tarixi. Bu yozuvning afzalliklari.
2.18. Kirill alifbosi va uning shakllanishi. Turkiy xalqlarga kirill yozuvining kiritilish sabablari. Kirill alifbosidagi turkiy yozuvlar va imlolar.
2.19. Halifalik davrida tilshunoslik. Xalifalik davrida ijtimoiy-siyosiy ahvol. Abu Nasr Farobiyning tilshunoslikka qo‘shgan hissasi. Abu Rayhon Beruniyning tilshunoslikka bo‘lgan qarashlari.
2.20. Xonliklar davri o‘zbek tilshunosligi.
2.21. Mustaqillik davri o‘zbek tilshunosligi.
2.22. Til va nutq. Til va nutq birliklari. Tilshunoslikda til va nutq hodisalarining farqlanishi haqida.
2.23. Lingvistik metodlar. An’anaviy metodlar. Metod atamasi haqida. Tilshunoslik metodlari. An’anaviy metodlar.
2.24. Til va uning istiqboli haqida. Sun’iy tillar. Xalqaro tillar. Xalqaro til muammosi. Xalqaro tilga talab. Xalqaro sun’iy tillar. Esperanto tili.
2.25. Turkiy tillar oilasi. Turkiy tillarga xos xususiyatlar.
2.26. Turkiy tillarda fonologik birliklar. Turkiy tillarda bo‘g‘in. Turkiy tillarda urg‘u.
2.27. X-XII asr tilshunosligi. Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarining til xususiyatlari.
2.28. Eski o‘zbek tilining shakllanishi. A.Navoiy – tilshunos.
2.29. Jadidlar davri tilshunosligi. Fitrat – tilshunos.
2.30. Eski o‘zbek tilida shakl yasovchi qo‘shimchalar.
2.31. O‘zbek xalq tili taraqqiyotining ilk davri. Bu davr adabiy tilining xususiyatlari. X-XII asr adabiyotining lingvistik, tarixiy va ilmiy ahamiyati.

2.32. Eski o‘zbek adabiy tilining shakllanishi va qaror topishida Navoiygacha ijod qilgan turkiygo‘y shoirlar asarlarining til xususiyatlari.
2.33. “Muhokamatul-lug‘atayn” va uning o‘zbek tili taraqqiyotida tutgan o‘rni.
2.34. O‘zbek adabiy tili taraqqiyotini o‘rganishda Bobur asarlarining ahamiyati.
2.35. Eski o‘zbek tilida ma’nodosh, shakldosh va zid ma’noli so‘zlar.
2.36. Hozirgi o‘zbek adabiy tili leksikasi va uning tarixiy-etimologik qatlamlari.
2.37. Keng va chegaralangan iste’molli leksika. Chegaralangan iste’mol leksikasining turlari. (atamalar, jargon so‘zlar, sheva so‘zlar, maxsus uslublar leksikasi)
2.38. O‘zbek lug‘atchiligi tarixi bayoni. Lug‘at tushunchasi.
2.39. Nutq birliklarinish shakllanishi.
2.40. Til tarixining ijtimoiy fanlar bilan bog‘liqligi va ular doirasida tutgan o‘rni. Adabiy til umumxalq tilining oliy formasi ekanligi. Adabiy tilning yozma va og‘zaki shakllari

**Biletning 3-savoli uchun mo‘ljallangan:
Fonetik va morfemik tahlil qilish uchun biletning uchinchi savoli sifatida
tavsiya qilingan so‘zlar**

Fonetik va morfemik tahlil qilish uchun tavsiya qilingan so‘zlar
3.1. Fonetik va morfemik tahlil: uchuvchi
3.2. Fonetik va morfemik tahlil: ishyoqmas
3.3. Fonetik va morfemik tahlil: kitobxon
3.4. Fonetik va morfemik tahlil: kalitsozlik
3.5. Fonetik va morfemik tahlil: sanoqsiz
3.6. Fonetik va morfemik tahlil: dasturlashtirilmoq
3.7. Fonetik va morfemik tahlil: xunobgarchilik
3.8. Fonetik va morfemik tahlil: yashovchan
3.9. Fonetik va morfemik tahlil: yog‘ingarchilik
3.10. Fonetik va morfemik tahlil: ertalab
3.11. Fonetik va morfemik tahlil: to‘qimachilik
3.12. Fonetik va morfemik tahlil: tinchliksevar
3.13. Fonetik va morfemik tahlil: yupat
3.14. Fonetik va morfemik tahlil: xonadoningizda
3.15. Fonetik va morfemik tahlil: o‘qimaguncha
3.16. Fonetik va morfemik tahlil: suzgichlari
3.17. Fonetik va morfemik tahlil: toblanmoq
3.18. Fonetik va morfemik tahlil: terimchi
3.19. Fonetik va morfemik tahlil: bilimdon
3.20. Fonetik va morfemik tahlil: bugun
3.21. Fonetik va morfemik tahlil: qopqoq
3.22. Fonetik va morfemik tahlil: yaylov
3.23. Fonetik va morfemik tahlil: qishloqdagi
3.24. Fonetik va morfemik tahlil: oqarinqiramoq
3.25. Fonetik va morfemik tahlil: qo‘g‘irchoqbozlik

3.26. Fonetik va morfemik tahlil: kulimsira
3.27. Fonetik va morfemik tahlil: bolajonlarnigina
3.28. Fonetik va morfemik tahlil: faxrlanmoq
3.29. Fonetik va morfemik tahlil: ko‘kimtirroq
3.30. Fonetik va morfemik tahlil: yiqit
3.31. Fonetik va morfemik tahlil: yoqimli
3.32. Fonetik va morfemik tahlil: ko‘rgumdir
3.33. Fonetik va morfemik tahlil: bo‘lg‘usi
3.34. Fonetik va morfemik tahlil: ulg‘aytirmoq
3.35. Fonetik va morfemik tahlil: susaymoq
3.36. Fonetik va morfemik tahlil: kichkinagina
3.37. Fonetik va morfemik tahlil: kungaboqar
3.38. Fonetik va morfemik tahlil: mehnatkashlarimizga
3.39. Fonetik va morfemik tahlil: sermahsul
3.40. Fonetik va morfemik tahlil: O‘zbekistonlikmisiz

Biletning 4-savoli uchun mo‘ljallangan: Grammatik tahlil qilish uchun tavsiya qilingan gaplar
4.1. Grammatik tahlil: Hozir jamiyatimizni yangilashning samarali yo‘llarini izlash davom etayotir.
4.2. Grammatik tahlil: Uzukning ko‘zi qimmatbaho toshdan edi.
4.3. Grammatik tahlil: Saidaning qoshi bir oz chimirildi, mayin tovushi o‘zgardi.
4.4. Grammatik tahlil: Bir yil tut ekkan kishi yuz yil gavhar teradi.
4.5. Grammatik tahlil: Yuz nomarddan yuz qaytar, bir mardni har kim maqtar.
4.6. Grammatik tahlil: O‘ynab gapirsang ham o‘ylab gapir.
4.7. Grammatik tahlil: Bilimdonlik insoniy fazilatlaridan biridir.
4.8. Grammatik tahlil: Biz tinchlik elchilari ekanimizni sezardik.
4.9. Grammatik tahlil: Odatda sholikorlik botqog‘ida qancha ko‘p shaloplatib yurilsa, shuncha qiyosi ko‘p bo‘ladi.
4.10. Grammatik tahlil: Yigitali bu bemazagarchilikka chek qo‘yishga bir necha marta ahd qilgan edi.
4.11. Grammatik tahlil: Dalada ertalabgi orombaxsh shamol esardi.
4.12. Grammatik tahlil: Yoshlikda o‘rgangan hunar o‘zingga o‘ljaga qolar.
4.13. Grammatik tahlil: Yaxshilikni daryoga qil, biyobondan top.
4.14. Grammatik tahlil: Zo‘r tasavvur buyuk bilimni taqozo etadi.
4.15. Grammatik tahlil: Bizdan Mirzakarimboy hech vaqt zarar ko‘rgani yo‘q.
4.16. Grammatik tahlil: Dunyodagi eng baland minora Dubayda joylashgan.
4.17. Grammatik tahlil: O‘z Vatanini sevgan kishi shu Vatan yo‘lida tinimsiz kurashadi.
4.18. Grammatik tahlil: Dilimizda yashaydigan qonun vijdon deya ataladi.
4.19. Grammatik tahlil: Tashqarida chaqmoq yaltirar va yomg‘ir quyur edi.
4.20. Grammatik tahlil: Quyosh yashiringan bo‘lsa ham, kunduzning yorug‘ligi hali so‘nmagan edi.

4.21. Grammatik tahlil: O'tirganlar gurullab kulib yuborishdi.
4.22. Grammatik tahlil: Insonga hayotda eng ko'p foyda beradigan narsa – umid.
4.23. Grammatik tahlil: Oyog'ida tik turgan dehqon tiz cho'kkan oliftadan ming bora afzal.
4.24. Grammatik tahlil: Har kimning qalbida o'z xalqining tashqi qiyofasi yashaydi.
4.25. Grammatik tahlil: Til do'stlik va hamjihatlikni qaror toptirishning eng qulay vositasidir.
4.26. Grammatik tahlil: Ezgu ishni hech qachon keyinga qoldirmaslik kerak.
4.27. Grammatik tahlil: Fan olg'a siljigan sari beto'xtov yangilanib boradi.
4.28. Grammatik tahlil: Aqlli o'zini ayblar, aqlsiz do'stini.
4.29. Grammatik tahlil: Xona ichida goh pashshaning g'o'ng'illagani yeshitiladi, goh xonadon sohibining ohista yo'talgani quloqqa chalinadi.
4.30. Grammatik tahlil: Dam kun birdan qizib ketadi, dam bulut kelib jala quyadi.
4.31. Grammatik tahlil: Ba'zan qurbaqalarning qurillashi quloqqa chalinadi, ba'zan itlarning vovullashi bu ovozlarni bosib ketadi.
4.32. Grammatik tahlil: Rejadagi zarur ishlarni amalga oshirishga vaqt yetkaza olmayapman, sen bo'lsa faqat dam olaylik deysan.
4.33. Grammatik tahlil: U kim bo'lsa bo'lsin, men esa arxitektor bo'laman.
4.34. Grammatik tahlil: Tovus o'zining chiroyli patlarini ehtiyot qiladi, vijdonli odam esa o'zining sharaf-u shonini saqlaydi.
4.35. Grammatik tahlil: Dono aybni o'zidan axtaradi, ahmoq bo'lsa do'stini ayblaydi.
4.36. Grammatik tahlil: Bulbul gulzorni izlaydi, boyo'g'li esa doim xarobani ko'zlaydi.
4.37. Grammatik tahlil: Olloyorning eng zo'r sifati shuki, uning qo'lida yig'layotgan chaqaloqlar birdan yupanadi-qoladi.
4.38. Grammatik tahlil: Vatanimizning kelajagi shuning uchun ham buyukki, unda yashayotgan aholining katta qismini yoshlar tashkil etadi.
4.39. Grammatik tahlil: Agar arqondan qo'llari chiqib ketsa, to tuman tarqalguncha yo'l topolmay sarson bo'lib yuraveradilar.
4.40. Grammatik tahlil: Bu yil toshqin havfi yo'q

10.00.02 – O'zbek adabiyoti ixtisosligi bo'yicha tayanch doktorantura va mustaqil izlanuvchilar uchun sinov savollari

1. “Metodologiya” istilohi va uning mohiyati?
2. Adabiyotshunoslik metodologiyasi uchun qaysi faktor (omil)lar muhim sanaladi?
3. Rus adabiyotshunosligida badiiy asarga yondashuv usullarini Y.Borev qanday tavsiflagan?
4. Sotsiologik metod negizida qaysi prinsip yotadi?
5. Ippolit Tenning nazariy qarashlari kimlar ta'sirida shakllangan?
6. Sotsiologik metod asoschisi I.Ten uchun san'atning eng asosiy predmeti nima?

7. 20-yillar rus adabiyotshunosligida maktab holiga kelgan va «formal maktab» nomini olgan yo`nalish tarkibiga qanday yo`nalish va jamiyatlar kirgan?
8. Formal metod namoyandalarining asosiy g`oyasi nima edi?
9. XX asrning 20-yillarida formal metod vakillarini qaysi masalalar qiziqtirgan?
10. Kim struktural lingvistika asoschisi sifatida fanga sinxron va diaxron o`rganish metodlarini olib kirdi?
11. Strukturalizm qanday bosqichlarni bosib o`tgan?
12. Struktural metodning maqsadi nima?
13. Strukturalizm metodining nazariy asoslari qayerda va kim tomonidan ishlab chiqildi?
14. Klod Levi-Stross o`zining struktural tadqiqotlari uchun nimalarni asos qilib oladi?
15. Struktural analizda matndagi asosiy ahamiyat kasb etuvchi omil?
16. Struktural poetikaning asosiy tadqiqot usuli qaysi?
17. Qaysi olim strukturalizmga faoliyat sifatida qaraydi?
18. R.Bart nima sababdan yozuvchilarni «tranzitiv» (tashuvchi) tip odamlar, deydi?
19. Biografik metod asosini nima tashkil etadi?
20. Sent-Byov biografik metod asoslarini qaysi ijodkorlar hayoti va ijodini o`rganish orqali ishlab chiqdi?
21. Sent-Byov o`zining biografik yo`nalishda yozgan adabiy-tanqidiy maqolalarida nimaga alohida e`tibor beradi?
22. Psixologik metod ko`proq nimalarga e`tabor qaratadi?
23. K.G.Yung nazarida arxetip nima?
24. Nima uchun psixologik tahlillarda biografik metod tajribalariga ham tayaniladi?
25. Badiiy asar matnini lingvistik analiz qilishda qaysi tamoyillar muhim sanaladi?
26. XX asr o`zbek adabiyotining taraqqiyot bosqichlarini sanab bering.
27. XX asr o`zbek adabiyotining o`ziga xos xususiyatlari nimalarda ko`rinadi?
28. Yangi o`zbek adabiyotida realizm bosqichi xususiyatlari
29. Sotsrealizm qanday bosqich?
30. Yangi o`zbek adabiyotida Abdulla Qodiriy ijodining o`rni.
31. Yangi o`zbek adabiyotida Cho`lpon ijodining o`rni.
32. Yangi o`zbek adabiyotida ijtimoiy oqimlar va metodlar masalasi.
33. Yangilanib borayotgan istiqloq davri adabiyotining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
34. Zamonaviy o`zbek adabiyotining yangilanishi.
35. Hozirgi she`riyatning asosiy xususiyatlari. She`riyatda komil insonni shakllantirishda milliy g`oya va mafkuraning roli.
36. Hozirgi o`zbek adabiyotidagi realistik tasvir va modern yo`nalishi aro munosabatlar: bahslar, konsepsiyalar.
37. She`riyatdagi poetik o`zgarishlar.
38. Mustaqillik davri she`riyati tadqiqiga oid qanday tadqiqotlar mavjud?
39. Bugungi o`zbek nasrida uslub va poetik mahorat xususidagi tadqiqotlar.

40. Modernizmni yuzaga kelishi tarixi, modern adabiyotida obrazlar tasviri haqida soʻzlang.
41. Zamonaviy oʻzbek hikoyalarida uslubiy yoʻnalishlar.
42. Postmodernizm hodisasi haqida maʼlumot bering.
43. Modern uslubdagi hikoyalarda milliylik talqinlari haqida soʻzlab bering.
44. Hozirgi adabiy jarayonda dramaturgiya sohasidagi izlanishlar haqida soʻzlab bering.
45. Qozoqboy Yoʻldoshevning “Yoniq soʻz” asarining mazmun mundariyasi bilan tanishtiring.
46. “Yoniq soʻz” asarining “Anglash yoʻli” boʻlimidagi bugungi adabiy jarayon masalalari tadqiqi haqida soʻzlab bering.
47. Bugungi oʻzbek nasrida qissa janrining shakllanishi haqida soʻzlab bering.
48. Erkin Aʼzamning “Shoirning toʻyi” hamda “Chapaklar va chalpaklar mamlakati” qissalarini tahlil qiling.
49. Ulugʻbek Hamdam hikoyalaridagi oʻziga xos badiiy talqinlar haqida soʻzlab bering.
50. Fanning nazariy mashgʻulotlari mazmuni.
51. XX asr adabiyotshunosligida poetika qonuniyatlarining ustivor boʻlishida V.M.Jirmunskirning xizmatlari haqida nimalar bilasiz?
52. Qadimgi yunonlarning tasavvurlariga koʻra, olamning tuzilishi qanday edi?
53. Adabiyotning vazifalari, uning insonga taʼsiri masalalari haqida Gesiodning (mil.av.VII-VI asrlar) "Teogoniya" asarida qanday fikrlar bildirilgan?
54. Ritorika fani asoschilaridan sanaluvchi – Protagorning bu sohadagi xizmatlari haqida toʻxtalib oʻting.
55. Mil.av. 427-347-yillarda yashagan Platon (yy.) oʻzining qaysi asarida dialog shaklidagi asarlarida sanʼat va adabiyot bilan bogʻliq qator muhim masalalarni oʻrtaga qoʻyadi?
56. Tazkira janri haqida fikr bildiring.
57. Muhammad Avfiyning "Lubob ul-albob" asari haqida toʻxtalib oʻting.
58. Manoqib-holot va risola haqida aytib oʻting.
59. Debocha haqida maʼlumot bering.
60. Ilmi badiʼ haqida nimani bilasiz.
61. Lafziy sanʼatlar haqida toʻxtalib oʻting.
62. Tashbih sanʼati haqida fikr bildiring.
63. TASHBIHI KINOYA haqida fikr bildiring.
64. TASHBIHI TASVIYA haqida fikr bildiring.
65. TASHBIHI AKS (teskari oʻxshatish) haqida fikr bildiring.
66. Obraz atamasining maʼnosi haqida fikr bildiring.
67. Arxetip deyilganda nimani tushunasiz?
68. Xayoliy-fantastik obrazlar haqida toʻxtalib oʻting.
69. Sentimentalizm va klassitsizmning farqli tomonlari.
70. Naturalizm *oqimi haqida fikr bildiring.*
71. Amaliy va badiiy sanʼat turlarining umumlashtiruvchi va farqli jihatlarini aytib bering.
72. Kompozitsiya haqida nima bilasiz?

73. Sujet va tarkibiy qismlarini aytib bering.
74. Hijo haqida fikr bildiring.
75. Prolog va epilog haqida ma'lumot bering.
76. XX asr oxirida adabiyotda qaysi konsepsiyalar paydo bo'lgan?
77. Kitobxonga qaratilgan nazariyalar haqida ma'lumot bering.
78. Matnga asoslangan nazariyalar qaysi konsepsiyalar nazarda tutiladi?
79. Shumer adabiyotining shoh janrlari qaysilar?
80. I.Dyakonov saqlangan manbalar asosida shumer tili taraqqiyotini qanday davrlashtiradi?
81. "Bilgamish" nechta dostonidan iborat va ilk doston nima haqida?
82. "Bilgamish" dostonining yaxlit variantida nima tasvirlanadi?
83. Misrdagi avtobiografik yozuvlar deb nomlangan toshbitiklarda nimalar tasvirlangan?
84. Misrdagi o'rta podsholik davrida oid "Gerakleopol saboqlari" asarida qanday hikmatlar keltirilgan?
85. "Marhumlar kitobiga necha bobdan iborat?
86. Qadimgi Misrda XX-XVIII asrga oid papirusga bitilgan asar qaysi?
87. Xitoy milliy adabiyotshunosligining dastlabki asari qaysi?
88. Xitoyda Lyuchao davriga kelib Konfutsiylik ta'limoti ijtimoiy-siyosiy oqim sifatida o'z ta'sirini yo'qotib o'rnini qaysi ta'limot egalladi?
89. Konfutsiy qadimgi kitoblardan terib olib, tartibga solgan kitoblar qaysilar?
90. Hindistonda yashagan qadimgi madaniy xalqlar tamil, telugu va malayamalar qanday madaniy yodgorliklarni bunyod etganlar?
91. Muqaddas "Veda" kitoblari qancha va ular qaysilar?
92. Sansara ta'limoti haqida ma'lumot bering.
93. Antik davr madaniyati nechta guruhga bo'linadi?
94. Poeziya san'ati nima yordamida tasvirlanishiga ko'ra qanday turlarga bo'linadi?
95. Adabiyot nazariyasiga oid maktub sifatida yozilgan asar qaysi?
96. Epikur falsafasini Diogen Laertiy uch guruhga bo'ladi va ular qaysilar?
97. "Avliyo Foma qilmishlari" tarkibiga kiruvchi "Marvarid haqida qo'shiq" qissasida qanday voqealar tasvirlanadi?
98. Vizantiyada, keyinchalik ko'pchilik Sharq xalqlarida mashhur bo'lib ketgan "Yusuf va Zulayho" qissasini eslatuvchi asar qaysi?
99. Vizantiya adabiyotida bu davrda agiografik asarlar bilan birga davlat, din va madaniyat arboblarning o'z hayotidagi ma'naviy izlanishlari haqida avtobiografik asarlar qanday nomlanadi?
100. Akademik A.Asqarov xronologik davriy tizimni qanday belgilaydi?
101. Mumtoz adabiyotda badiiy so'z tabiati. Shakl va mazmun mutanosibligi.
102. Debochalar va ularning nazariy qarashlar tarixida tutgan o'rni.
103. Mumtoz poetika masalalarida an'anaviylik va izdoshlik.
104. Germenevtik, qiyosiy-tarixiy, tahliliy-komponental, tipologik tahlil turlari.
105. Uslub tushunchasi. Badiiy matn poetikasida ijodkor uslubining o'rni.
106. Badiiy asar takomilida qofiya va radifning vazifalari.
107. She'riy janrlar va ularning matn poetikasidagi maqomi masalasi.

108. Ilmi bade'ning taraqqiyot tarixi va mumtoz poetika masalalari.
109. Badiiy matnda timsollar tizimining tahlili.
110. Mumtoz poetikada badiiy nutq.
111. Navoiy va Boburning shakl va mazmun mutanosibligi borasidagi ilmiy va amaliy qarashlari.
112. Alisher Navoiy va Boburning aruzshunoslikka qo'shgan hissasi.
113. Zahiriddin Boburning poetikaga oid qarashlari.
114. Mumtoz she'riyatda ranglar poetikasi.
115. Mumtoz she'riyatda an'ana va yangilanish masalasi.
116. Mumtoz adabiyotda badiiy nutq va uslub masalalari.
117. Devon debochalarining poetik ahamiyati.
118. Badiiy matnni germeneytik va qiyosiy-tarixiy tahlil etish usullarini o'zlashtirish va amalda qo'llash (mumtoz matnlar asosida)
119. Amiriy she'riyati poetikasini o'rganish. Uvaysiy she'riyatida qofiya va radif poetikasi.
120. Badiiy matnda janrlar tabiati. Boburning kichik lirik janrlardagi o'ziga xos uslub xususiyatlarini belgilash.
121. Mumtoz adabiyotshunoslikka oid asarlarda janrlarga munosabat. Qofiya va radifning o'rganilish tarixi ("Funun ul-balog'a" va "Badoyi' us-sanoyi" "Muxtasar", "Mezon ul-avzon" asosida)
122. Mumtoz tarixiy poetikada "Funun ul-balog'a" va "Badoyi' us-sanoyi" asarlarining o'rni.
123. Gulxaniy "Zarbulmasal" ida istiora va irsoli masal san'atining o'rni va vazifalarini aniqlash.
124. Badiiy obraz poetikasi.
125. Ramziy obrazlar poetikasi.
126. O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti shakllanishida ijtimoiy-siyosiy omillar. Davr voqeligining adabiyotda aks etishi.
127. O'zbek milliy uyg'onish adabiyoti: mavzu ko'lami, janrlar yangilanishi va takomili.
128. Turkistonda ochilgan jadid maktablariga ta'rif bering.
129. Jadid adabiyotida janrlardagi yangilanish. Mavzuga doir ilmiy-nazariy muammolar.
130. Teatr va dramatik asarlarning adabiyotshunoslikdagi talqinlariga munosabat bildiring.
131. Milliy matbuot va adabiyotshunoslik muammolari.
132. O'zbek milliy uyg'onish adabiyotiga kirib kelgan badiiy tur va janrlar.
133. Jadid adabiyotida lirikada mavzular ko'laminin kengayishi. Ijtimoiy she'riyat va barmoq vaznining ommalashuvi.
134. Jadidchilik va jadid adabiyotini ilmiy o'rganish bosqichlari va uni davrlashtirish yuzasidan ilmiy asarlar bilan tanishish.
135. Milliy matbuotning shakllanishi va tadriji, adabiy jarayonga ta'siri. Yangi davr adabiyotshunosligining yuzaga kelishi.
136. Behbudiyning "Tanqid saralamoqdir", Cho'lponning "Adabiyot nadir"

- maqolalari haqida.
137. Fitratning adabiyotshunoslik faoliyati. Adabiy-nazariy qarashlardagi yangilanish.
 138. Vadud Mahmudning adabiy-estetik qarashlari. Muammoning o'rganilish darajasi: ilmiy natijalar, vazifalar.
